**Gushko Sergey Vladimirovich**, Doctor of Economics, Professor, Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukraine

**Kurolov Kobuljon Kulmanovich**, Doctor of Economics, Professor. Director of the center for retraining and retraining of teachers at the tashkent state technical university named after Islam Karimov

**Mamanazarov Abdulkhakim Bozorovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor. Tashkent branch of Lomonosov Moscow State University M.V. Lomonosov

**Sohibov Akram Rustamovich**, candidate of pedagogical sciences, associate professor. Karshi State University

**Umarov Bakhshullo Djuraevich**, candidate of pedagogical sciences, associate professor. Bukhara State University

**Hasanova Gulnoz Kasimovna**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University

**“JASORAT” MUZEYI: TARIX VA TALQIN**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022>.*Boltayev Bobir Baxtiyorovich –Buxoro davlat universiteti  
Buxoro tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada Ichki ishlar vazirligi Buxoro Akademik lisey huzuridagi “Jasorat” muzeyining ochilishi, uning bo'limlarida mavjud bo'lgan eksponatlar ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlar: Zal, eksponat, lisey, O'rta Osiyo, xalq milisiyasi, Sovet hokimiyati, Ichki ishlar, portret.*

**МУЗЕЙ “МУЖЕСТВО”: ИСТОРИЯ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ***Болтаев Бобир Бахтиерович,**Старший преподаватель кафедры Истории Бухары, Бухарский  
государственный университет*

*Аннотация: В данной статье анализируется открытие музея “Жасорат” при Бухарском Академическом лицее Министерства внутренних дел, экспонаты, имеющиеся в его отделах, на основе научных источников.*

*Ключевые слова: Зал, экспонат, лицей, Средняя Азия, народная милиция, Советская власть, МВД, портрет.*

**MUSEUM “JASORAT”: HISTORY AND INTERPRETATION***Boltaev Bobir Bakhtiyorovich,**Senior Lecturer of the Department of History of Bukhara at the Bukhara state  
university*

*Abstract: The following article analyzes the launch of the museum “Jasorat” at the Ministry of Internal Affairs Bukhara Academic Lyceum, the exhibits available in its departments, based on the scientific sources.*

*Keywords: Hall, exhibit, lyceum, Central Asia, people's militia, Soviet authority, Ministry of Internal Affairs, portrait.*

O'rta Osiyoda qadimdan boshlab qat'iy tartib qonun qoidalarga rioya qilish mavjud bo'lgan. Buni O'rta Osiyo tarixi bo'yicha qadimgi yozma manba “Avesto” kitobida keltirilgan insonlarning dinga, shaxsga, hayvonga, mulkka qarshi qaratilgan ishlari jinoyat deb baholangan ma'lumotlaridan ham bilishimiz mumkin. Agar jinoyat takrorlansa, jazo ham og'irlashtirilgan. Oddiy mevali daraxtni kesganligi sababli ham jazo tayinlashgan. Miloddan avvalgi va milodiy asr boshlarida O'rta Osiyo hududi kichik davlatlarga bo'lingan bo'lib, har birining o'z dini, davlat tuzimi va ichki qo'shinlari turlicha bo'lgan. Harbiy qoidalar ham shunga monand kuchli davlatlar bosqinchilik, kichiklari esa himoya taktikalarini rivojlantirishgan. Mamlakat hududi kengayishi bilan harbiy amallar va vazifalar ham kengayib borgan. VIII asrdan arablar bilan ularning harbiy tartib-qoidalari ham Amudaryoning o'ng sohiliga kirib keldi. Somoniylar va Qoraxoniylar davrida o'rta asrlarning harbiy tartib-qoidalari to'la shakllandi. Keyingi davrlarning harbiy tartiblar uchun ham bu qoidalar asos bo'ldi. Mo'g'ullar xitoy va ko'chmanchilik harbiy tartiblarini Movaraunnahr hududiga olib kelishdi. Temuriylar davrida harbiy ish san'at darajasiga ko'tarildi. Amir Temur o'gitlarida “Mamlakatimning bir chekkasidan ikkinchi chekkasigacha



yosh bola boshi ustida bir la'li oltin olib o'tsa, uning yo'lini hech kim to'sa olmaydi" deb yozib qoldirgan. Yoki Yevropa qirollari bilan savdo masalalaridagi xatlarda chet elliklarning erkin, xavfsiz faoliyat yuritishini taminlash haqidagi qarashlari o'sha davrning mohir diplomatiyasining namunasi hisoblanadi. So'nggi o'rta asrlarda O'rta Osiyoni turli sulolalar uch xonlikka bo'lib boshqarishdi[1]. Buxoro eski shahar qismining Toqi Telpakfurushon (Toqi Kitobfurushon) gumbazining ostida bir qabr saqlangan bo'lib, aholi bu joy ziyorat qilib kelmoqda. Manbalarda va xalq og'zaki ijodida bu yerda Xoja Muhammad Parron dafn qilinganliklari keltiriladi. Ya'ni bu inson Buxoro mirshablarining piri bo'lgan va shaharni himoya qilib turgan. Qabr joylashgan mahalla ham bir vaqtlar Xoja Muhammad Parron nomi bilan atalgan. Buxoro amirligida ichki tartiblar bilan harbiylardan tashqari, muxtasib, qozilar ham shug'illangan. 1837 yilda amir Nasrulloxon harbiy islohot o'tkazadi va endilikda faqat bosqinchilik va qo'zg'olonlar vaqtida yig'iladigan dehqonlardan iborat qo'shin turi tugatilib, doimiy safda turadigan 2500 kishilik doimiy qo'shin tuzildi. Amirlik qo'shinining tartib va ta'limiga Abdusamad eroniy rahbarlik qilar edi. Ularning barchasi pilta miltiqlar bilan qurollantirildi. Nasrulloxon davridan "sarbozlar" va "to'pchilar" nomli dastalar tuzilgan (bu vaqtgacha "galabotir" va "kasabotir" nomli chaqirilganda to'planuvchi qo'shin bo'lgan). Amir Muzaffar davrida Usmon va Xo'ja rumiy qo'shinga rahbarlik qilgan[2]. Shuning uchun ham amirlik qo'shinida eron, rus, afg'on, turk tartiblari ham amalda bo'lgan. Amirlikda unvonlar juda ko'b bo'lib ba'zan ularning qaysi biri harbiy, fuqarolik, saroy va qozixonaga tegishli ekanligini ajratish qiyin bo'lgan. Asosan unvon va mansablar qarindoshlarga, qabila vakillariga, sadoqatiga, donoligini inobatga olib topshirilgan. Amirlik davrida Abdurahimbek inoq lashkarboshi, Abdusattor inoq, Mullo Mahmud, Mullo Xolmurod, Shodibek inoq, Akram inoq, Abdulqodir inoqlar to'pchiboshi askar bo'lib faoliyat ko'rsatgan. 1887 yilda to'pchiboshi bilan uchrashgan Krestovskiy uni shunday ta'riflaydi – "taxminan ellik yoshlardagi ozg'in kishi, yuzi forscha ko'rinishda, boshiga baland telpak kiygan, egnida eroncha uslubdagi to'q binafsharang baxmal palto, yenglari va ko'krak tepa qismi kumushdo'zi edi. Ikki yon tomonida oltitadan kichik yupqa mis tugmalar terilgan, yelkalarida shtab ofitseri belgisi bo'lgan kumush epoletlari, belida kumushdan kamar va unga tilla qinli shamshir feruza va aqiq bilan bezatilgan"[3].

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab amirlikda yevropacha ko'rinishdagi askarlar tashkil qilina boshlandi. Amir Olimxon hukumronligining ikkinchi yarmida mavjud siyosiy-strategik vaziyatdan kelib chiqqan holda "arabbacha", "sherbachcha" va "afg'on" askarlari dastalarini tuzadi.

Olomon – harbiy hujum va qo'zg'olon vaqtlarida to'planadigan qo'shin turi.

Sarboz - piyoda qo'shin[4].

Terskiy – Karmana va Chorbog' guzarida turishgan.

Otliq kazaklar – Mirdo'stum, Chashmayi Ayub, Kofirobod guzarlarida turishgan.

Shefskiy – Sitorai Mohi Xossada turishgan.

Shuningdek har bir beklikda "Elnavkarlar" ham bo'lgan. Ularning bir dastasi 150 nafargacha yetgan. XX asrning boshlarigacha askarlar oladigan kunlik va oylik maoshlari bir tartibga keltirilgan edi. Harbiy yurishlar va Qurbon bayramlarida askarlarga alohida pul to'langan.

Qo'shin Berdanka, xanjar, shamshir, pistolet, nayza, revolver bilan qurollangan. Bu qurollarning aksariyati muzeydan o'rin olgan. Amirlik davri orden va medallari, qorovullarning qo'shimcha ashyolarlari ham eng qadimgi tartibni saqlash buyumlari sifatida ko'rgazmadan o'rin oldi.

1917 yil 28 oktyabr (yangi sana bilan 10 noyabr) da "Ishchi Milisiya haqida"

dekret e'lon qilinadi. Dekretda milisiyaga to'rtta asosiy vazifa yuklatiladi va bu dekret keyingi 74 yillik sovet davlati uchun asos vazifasini bajardi. 1920 yil 30 avgustdan milisiya boshqarmasi tuzildi va unga Sobirjon Yusupov tayinlandi. Shu vaqtda Muxtorjon Saidjonov qo'riqlash boshqarmasi boshlig'i vazifasiga tayinlandi.

Buxoro amirligi ag'darilgandan so'ng 1920 yil 6 sentyabrda Buxoro revolyusion komiteti Harbiy Ishlar Xalq Nozirligini tuzishga qaror qildi. Harbiy Ishlar bo'yicha BXRning birinchi noziri tatar harbiy shifokor Baxouddin Shaxobiddinov (1893-1920) bo'ldi. Noyabr oyidan birinchi nozir vafotidan so'ng Yusuf Ibragimov Buxoro Kommunistik Armiyasi (BKA) ni tashkil qildi [5].

Buxoroda amirlik tuzumi ag'darilgandan so'ng amirlik harbiylari ham tarqatib yuborildi. Dastlab rus va yevropaliklardan iborat bo'lgan kompartiya qo'shinlari tuzildi. Ammo ichki tartib-osoyishtalikni saqlashda ularning tarkiban kamligi ayon bo'ladi. Shunda mahalliy xalq orasidan ham askarlikka olish va ularni o'qitish ishlari olib borildi. Buxoroda "xalq milisiyasi" shu tariqa vujudga keldi. Yangi tashkil etilayotgan milisiya idoralari oldida quyidagi asosiy vazifalar quyiladi:

- Jamoat tartibini saqlash;
- Davlat va fuqarolar mulkini qo'riqlash;
- Fuqarolarning qonuniy haq-huquqlarini himoya qilish;
- Jinoiy unsurlarga qarshi kurash.

Buxoro Respublikasi Ichki Ishlar xalq nozirligi tarkibida qo'riqlash bo'limi ta'sis etilgan edi. Uning zimmasiga fuqarolarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va respublikada o'rnatilgan davlat tuzumiga qarshi ayrim shaxslar va uyushmalar tomonidan qilinishi mumkin bo'lgan suiqasdlarning oldini olish uchun milisiya mahkamalari yaratish yuklangan edi.

Bo'limda uchta:

siyosiy qidiruv - aksilinqilobchilarga qarshi kurash;

jinoiy qidiruv – jinoyatchilikka qarshi kurash;

milisiya – fuqarolarning shaxsi va huquqlarini himoya qilish bo'limlari bor edi.

BXR Ichki ishlar nozirligining 1920 yil 25 sentyabrdagi buyrug'iga ko'ra, Ishchi-dehqon Milisiyasi Bosh boshqarmasi tashkil etildi. 1921 yil 17 yanvarda Umumbuxoro Markaziy ijroiya qo'mitasi va Xalq nozirlar kengashining "Ishchi-dehqon milisiyasi haqida"gi dekreti qabul qilingan. Unga ko'ra, ishchi-dehqon milisiyasi katta va kichik milisionerlar, jinoyat qidiruvi boshliq tarkibi, qidiruv agentlari, kanselyariya (devonxona) va texnik xodimlardan iborat bo'lgan. Bu davrga tegishli miltiq, bosh kiyim va tarixiy hujjatlar ekspozitsiyadan o'rin olgan. 1924 yil 1 oktyabrda Butunbuxoro MIK qarori bilan Buxoro respublikasida ma'muriy-hududiy bo'linish qayta o'tkazilib viloyatlar o'rniga 5 ta okruglar tuzildi. Shulardan biri Zarafshon okrugi bo'lib, barcha harbiylar okrugga bo'y sundirildi. 1925 yilda Romitanda birinchi milisiya otliq polki tuzilib, unga Mullo Aso Rahimov boshchilik qildi. Ushbu polkda Ahad Samadov, Naim Rahimov, Temir Oripov, To'la Mirzayev, Halim Naimov, Abdurazzoq Avezovlar faoliyat olib borishgan. Milisiya otliq polki 1940 yilda tugatilib, milisiya bo'limiga aylantirildi. 1920 yil 2 oktyabrdan Qorako'l milisiyasi faoliyatiga VCHK xodimi Qurbon Sherov rahbarlik qilgan. Urush davrida O'zbekistondan 1,5 mln kishi urushga safarbar etilgan (1941 yil yozida jami aholi 6,5 mlnga yaqin edi). Shulardan 500 mingga yaqini urush maydonlarida vatan himoyasi uchun mardlarcha halok bo'ldi. 1995 yida chiqarilgan Xotira kitobining 34 jildi nashr qilindi. Ularda jami 431 mingdan ortiq urush maydonlarida halok bo'lgan jangchining nomlari keltirilgan. Ushbu kitoblarning oxirgisi 2008 yilda nashr qilingan. 4 qo'shimcha jildida jami 450 mingdan ortiq jangchining nomlari qayta tiklandi. Buxoro viloyatidan urush yillarida jami 73688

nafarga yaqin er yigitlar harbiy safarbarlikka chaqirilgan. Ularning 30 mingga qaytib kelgan. Ularning 25 mingdan ortig'i Buxoro viloyatiga bag'ishlangan Xotira kitobiga kiritilgan. 5000 kishi orden va medallar bilan, 13 kishi Sovet Ittifoqi qahramoni, 1 kishi uchala "Shuhrat" ordenining to'la kavaleri unvonlari bilan taqdirlanishgan, shu jumladan 176 nafar buxorolik ayollar ham. Ular sobiq Ittifoq hududlaridan tashqari Yevropa hamda Afrikaning turli o'lkalarini ozod etishda ishtirok etishgan va ularning qabri ham hozirda o'sha yurtlarda saqlanadi. Fashist bloklari ustidan qozonilgan g'alabaning 70 yilligi arafasida buxorolik urush qatnashchilari 183 kishini, 2016 yilda 65 kishini, 2017 yilda esa 59 kishini tashkil etgan. Urush yillarida hatto nemislar tomonidan o'zbeklarni o'zlari tomoniga og'dirish maqsadida turli tarqatmalar ham tarqatilgan. Masalan, "O'zbeklar! SSSRda ochlik. Qizil armiyada to'yib ovqat yemaysiz. Qancha tez va ko'p germanlar tomoniga o'tsangiz, urush shuncha tez tamom bo'ladi" qabilidagi varaqalarni asirlar va askarlar orasida tarqatishgan. Ammo o'zbek xalqi hech qachon dushman tomonga o'tmagan va xalqlar birligiga sadoqat bilan xizmat qilib, g'alabaga o'zlarining munosib hissalarini qo'shishgan. 1941 yilda milisiya xodimlarining ilg'or qismlari urushning dastlabki kunlaridanoq jangga otlandi. Shu yillarda Shodi Ashurov, Vladimir Lashmanov, Abdurahmon Niyozov, Mirzo Ochilov, Zarif Sharipovga o'xshagan yigitlarimiz ayniqsa jonbozlik bilan el-yurtga xizmat qildilar. Toshkent milisiyamaktabioperativxodimlartayyorlovchiasosiy bazalardan biribo'libqoldi. Kadrlaryetishmasligitufaylio'qishmuddatito'qqizoybo'lganasosiybo'limdantashqari, 3 oy, 20 kunlik kurslartashkiletildi. Urush sharoitidan kelib chiqqan holda, davlat tashkilotlarining strukturasi, ularga yuklatilgan vazifa va vakolatlarda bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi. 1941 yil fevral oyida SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi va uning joylardagi bo'limlari ikkiga, ya'ni Ichki ishlar xalq komissarligi va Davlat xavfsizlik komissarligiga bo'lindi. 1941 yil 20 iyulda SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining Davlat xavfsizligi komissarligi va Ichki ishlar xalq komissarliklarini yagona Ichki ishlar xalq komissarligiga birlashtirish to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi. Buxoro viloyat IIB boshlig'i lavozimida xizmat qilgan G'.Rahimov urush qatnashchilari haqida: "Urush ishtirokchilari, urush qahramonlari bo'lgan kishilar milisiyaning ham qahramonlari edilar. Ular xuddi urushdagi kabi o'z jonlarini ayamadan jinoyatchilikka qarshi kurash olib bordilar. Ularning ichki ishlar organlaridagi keyingi faoliyatida ham doimiy ravishda o'z xizmatiga sodiqlik, jonbozlik, qat'iyatlilik, matonatlilik, fidoiylik xislatlari namoyon bo'ldi" deya ta'kidlaydi.

1991 yil 25 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 270-sonli qarori asosida O'zbekiston SSR IIV – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga aylantirildi. Qaror bilan vazirlik Nizomi va strukturasi tasdiqlandi. Keyinchalik ushbu sana mamlakatimizda ichki ishlar organlari xodimlari kuni sifatida belgilandi. O'zbekistonning eng yangi tarixidagi ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilgan islohotlarni shartli ravishda 3 bosqichga bo'lish mumkin:

1-bosqich. 1991–1998 yillarda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi va o'tish davrida ichki ishlar organlarining moddiy-texnik ahvolini yaxshilash, malakali milliy kadrlar tayyorlash tizimini joriy etishga qaratilgan dastlabki o'zgarishlar qilindi.

2-bosqich. 1999–2016 yillarda mustaqillik yillarida to'plangan tajriba va mamlakatda yuzaga kelgan shart-sharoitlardan kelib chiqib, ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirildi.

2016 yilda mustaqil O'zbekistonning 25 yillik tarixida ilk bor "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, unda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyatining yo'nalish va tamoyillari belgilab berildi. O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 apreldagi qarori bilan Ichki ishlar vazirligi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Hozirgi kunda Buxoro viloyat ichki ishlar organlari yangi moddiy-texnik bazasi va salohiyati kadrlarning samarali faoliyati natijasi o'laroq o'zining yuksak Vatan, Xalq oldidagi burchini ado etib kelmoqda. Buxoro viloyati ichki ishlar boshqarmasining "Jasorat" tarixi muzeyi bugungi kun ichki ishlar sohasi faoliyati, uning bo'limlar, sohada qilinayotgan yangiliklarni to'la yoritib bera oladi. Muzeyni tashkil qilishda Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi xodimi O'. Ravshanov, Akademik lisey direktori podpolkovnik I.B. Hamroyev Milisiya xodimlari B. Narziyev, Sh. O'. Hamidov va boshqalarning mehnatlari katta bo'ldi. Mazkur muzeyni tashkil etishning ham o'ziga xos tarixi bor. Dastlabki, me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida "Jasorat" muzeyi konsepsiyasi tayyorlanib, boshqarmadagi muzeyni IIB Buxoro akademik liseyi binosiga ko'chirish va takomillashtirish ishlari olib borildi. Shundan so'ng muzey zamon talablariga mos ravishda jihozlanib, 4 ta maxsus zallarga ajratildi va har bir zalda bo'limlar tashkil etildi [6].

Birinchi zalda Buxoro amirligi davrida davlatchilik va harbiy tartiblariga oid eksponatlar, XVI-XX asrlarda ishlab chiqarilgan va foydalanilgan o'qotar qurollar, fiqh ilmiga va Buxoro tarixiga oid kitoblar hamda o'zbek xalqining buyuk sarkardalari- Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro va Amir Temur portretlari joylashtirildi.

Ikkinchi zalda Buxoro milisiyasining tashkil topishidan mustaqillikka erishilgan davrgacha bo'lgan jangovor faoliyati yoritilgan.

Uchinchi zal 1991-2016 yillarni o'z ichiga olgan bo'lib, ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyatini aks ettirish barobarida, "Xotira aziz- qadr muqaddas" deb nomlangan burchakda xizmat burchini bajarish chog'ida hamda ichki ishlar organlarida xizmat vazifasini bajarish vaqtida vafot etgan xodimlarga hurmat ko'rsatilib, ularning fotosuratlari joylashtirilgan.

Muzeyning to'rtinchi zalida viloyat ichki ishlar organlarida yangi tashkil etilgan xizmat yo'nalishlari va ularda bo'lgan o'zgarishlar, xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida yaratilgan sharoitlar, 2017-2021 yillarda viloyat ichki ishlar organlarida olib borilgan qurilish-obodanlashtirish ishlari aks etgan fotolavhalar qo'yildi. Shuningdek, zalda har bir xizmat sohasiga alohida joy ajratilgan bo'lib, unda xizmatlarning tarixi va bugungi kundagi faoliyati tasvirlangan stendlar, xizmat faoliyatida foydalanilayotgan qurollar joylashtirildi [7]. Muzey 4 ta alohida xonadan iborat bo'lib, 50 dan ortiq kishi bir vaqtning o'zida muzeyni tomosha qilishi mumkin. Muzeyda bugungi kunda 800 dan ortiq tarixiy ashyolar ko'rgazmaga qo'yilgan. Shuningdek, tomoshabinlarga qulaylik yaratish maqsadida video proyektor, ovoz kuchaytiruvchi vositalar ham ko'rgazmalardan o'rin olgan [8]. Muzey ochilganiga ko'p bo'lmasa-da, o'quvchi yoshlar, ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylar hamda mehmonlar bilan doimo gavjum. Muzeylar ma'naviyat va ma'rifat maskani hisoblanib, xalqimiz ma'naviy-ma'rifiy kamolotida, yoshlar dunyoqarashini o'stirish, boy merosimizni asrab-avaylash, milliy g'urur va iftixor, vatanga sadoqat tuyg'ularni shakillantirishda ahamiyati beqiyosdir. Muzeyning akademik lisey binosida tashkil etilishining yana bir muhim jihati, o'quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda "namuna maktabi" bo'lib xizmat qiladi deb o'ylaymiz. Muzey quyidagi bo'limlardan iborat:

- I. Qadimgi va amirlik davrida davlat va harbiy tartiblar.
- II. Buxoro milisiyasining tashkil topishi.
- III. Ikkinchi jahon urushi yillarida g'alabaga Buxoro milisiyasining qo'shgan hissasi.
- IV. Sovet hokimiyati davrida milisiya faoliyati.

V. Mustaqil davlatning mustaqil milisiyasi.

VI. Ichki ishlar tizimining yangi bosqichga ko'tarilishi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Buxoro viloyat Ichki ishlar "Jasorat" tarixi muzeyi - jamoat tartibini saqlash va xalqning xavfsizligini ta'minlash, davlat yaxlitligini himoya qilish va boshqa jamiyani tartibga solib turuvchi xizmatlar qadimdan davlatchilik bilan bir qatorda shakllanganligini ko'rsatishdan boshlanib, uzoq tarixiy davrni bosib o'tish jarayonida ichki ishlar organlari zamon talablariga mos ravishda rivojlanib, takomillashib borganligini moddiy ashyolar yordamida namoyish etishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlarro'yxati.

1. Buxoro viloyati Ichki ishlar tarixi muzeyining ilmiy konsepsiyasi. Buxoro.2021, 5-b

2. Sultonzoda V. Lashkari amiroti Buxoro: holati, idora va an'anaho. - Xo'jand: 2017. 161.b

3. Крестовский В.В. В гостях у эмира бухарского. -С.-Петербург:1887.С.109-110.

4. Андреев М.С., Чехович О.Д. Арк(кремль) Бухары в конце XIX начале XX вв.-Душанбе: 1972. С- 68.

5. "Ozod Buxoro", 1924 yil, 26 fevral, 53 son.

6. Web-site: www.postda.uz

7. Hamroyev I. Jasorat muzeyi- vatanparvarlik ko'z gusi // Postda gazetasi. 2021 yil 18 noyabr №46 -10 bet

8. Ravshanov O'. "Yangi muzey nimalar haqida hikoya qiladi" // Buxorona. 2021 yil, 25-dekabr (№103)

9. Boltayev V. O'zbekistonda muzey islohoti yo'lida // Центр научных публикаций (buxdu. uz). - 2021. - Т. 6. - №. 6.

10. Boltayev V. B. Buxorolik miniaturachi-rassom sadriddin pochchayev ijodiga bir nazar // Scientific progress. - 2021. - Т. 1. - №. 6. - С. 998-1004.

11. Bakhtiyorovich V. B. Excerpts from the life of the bukharian artist // Middle European Scientific Bulletin. - 2021. - Т. 12. - С. 160-165.

12. Boltaev, V. (2020). Educational methods aimed at creating a sense of harmony among children in the activities of art circles of orphanages. Theoretical & Applied Science, (5), 780-782.

13. Boltayev, V. (2020). Yurtimizda muzeylar faoliyatini qo'llab quvvatlashning yangi bosqichga ko'tarilishi (Buxoro misolida): Qo'llanmalar asosida. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 1(1).

14. Boltayev V. Ta'lim va tarbiya jarayonida muzeylar faoliyatining ahamiyati: Based on source // Центр научных публикаций (buxdu. uz). - 2020. - Т. 2. - №. 2.

15. Boltayev V. Новый этап развития музеев и музейного дела в Узбекистан // Центр научных публикаций (buxdu. uz). - 2021. - т. 5. - №. 5.

16. Boltayev, Bobir. «Фидоий ва жонкуяр устоз.» Центр научных публикаций (buxdu. uz) 6.6 (2021).

17. Boltayev, V. (2020). Фрагменты из истории бухарского музея-заповедника. центр научных публикаций (buxdu. uz), 2(2).

18. Boltayev, Bobir Baxtiyorovich. «Buxorolik miniaturachi-rassom sadriddin pochchayev ijodiga bir nazar.» Scientific progress 1.6 (2021): 998-1004.

19. Boltayev, V. (2021). Совместно с редакцией научно-исследовательских журналов «Анвори илм» и «тафаккури таърих». центр научных публикаций (buxdu. uz), 7(7).

Журнал Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан 2020 йил 6 октябрда ўтган.

Журнал ҳар ойда бир марта ўзбек, рус ва инглиз тилларида нашр этилади.  
Журналнинг ҳажми 60x84, 1/8, А-4;

«Таълим ва инновацион тадқиқотлар» халқаро илмий-методик журнали 2020 йил октябрдан нашр этилмоқда.

Педагогика, психология, филология ва тилшунослик, математика, физика ва механика, техника фанлари, табиатшунослик, тарих ва фалсафа, туризм ва иқтисодиёт, ахборот коммуникацион технологиялари, география соҳалардаги илмий ва илмий-услубий материалларни ўз ичига олади. Нашр қилинган материаллар муаллифлари Ўзбекистон Республикаси ҳамда яқин ва узоқ хорижнинг етакчи олимлари, тадқиқотчи-изланувчилари.

Журналнинг калит сўзлари:

Олий педагогик таълим назарияси ва амалиёти; умумий ва махсус педагогика ва психология, педагогика ва инновация, интеграция, Ўзбекистон, Россия ва хорижий мамлакатларнинг таълим тизими; таълим жараёни; кўп маданиятли ва минтақавий таълим; III Ренессанс, XXI асрдаги таълим; таълим ва тарбия соҳасидаги миллий ва қадрият устуворликлари; таълим сифатини мониторинг қилиш; узлуксиз педагогик таълим тизими; таълим дастурлари; умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартлари; ўқитувчиларни тайёрлаш тизимидаги таълим технологиялари.

Гувоҳнома рақами № 8882  
Бош муҳаррир: Б.Б.МАЪМУРОВ

Босишга рухсат этилди 25.10.2022. Буюртма №5345.  
«Бухоро вилоят босмахонаси» МЧЖда чоп этилди.



ISSN 2181-1717 (E)



9 772181 171701

ISSN 2181-1709 (P)



9 772181 170902